

MUMTOZ MAHAL BEGIN VA TOJ MAHAL TARIXIGA BIR NAZAR**Gadayeva Mohigul Muxamedovna**

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix va filologiya kafedrasi o`qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14675160>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boburiy malikalardan biri, oqila, tadbirkor malika Mumtoz Mahal begin va unig turmush o`rtog`i Shoh Jahonning muhabbatni, hamda uning sharafiga qurilgan maqbara haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Arjumand Bonu, eroni, sulola, Xurram, tadbirkor, oqila, yodgorlik, maqbara.

A LOOK AT THE HISTORY OF MUMTOZ MAHAL BEGIN AND THE TAJ MAHAL

Abstract. This article discusses the love of one of the Mughal queens, the wise and enterprising queen Mumtaz Mahal Begim and her first husband Shah Jahan, as well as the mausoleum built in her honor.

Keywords: Arjumand Bonu, Iranian, dynasty, Khurram, entrepreneur, wise, monument, mausoleum.

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ НУМТАЗ МАХАЛ БЕГИМ И ТАДЖ-МАХАЛА

Аннотация. В статье обсуждается история любви одного из императоров Великих Бабуридов, мудрой и предпринимчивой королевы Мумтаз Махал Бегум, и ее мужа Шах-Джасхана, а также мавзолея, построенного в ее честь.

Ключевые слова: Арджуманд Бону, Хуррам иранец, династия, предприниматель, интеллект, памятник, мавзолей.

Mumtoz Mahal begin asl ismi Arjumand bonu bo`lib, boburiy malikalardan hisoblanadi.

Mumtoz Mahal 1593 yilda dunyoga keldi. U Jahongir shojning rafiqasi Nur Jahonning akasi hamda saltanat vaziri Abdul Xasan Asaf Xonning qizi bo`lib, tug`ilganida unga Arjumand Bonu Begim, deb ism qo`yilgan. Arjumand Bonu asli eronlik bo`lib, bobosi va ota-onasi Hindistonga ko`chib kelib, Akbarshoh xizmatiga kiradi. 1611-yilda Arjumand bonuning ammasi Nurjahon Jahongirshohga turmushga chiqqach, Arjumand bonuning bobosi E`timod ud-Davla bosh vazirlik mansabiga, otasi E`tiqodxon esa saroy boshqaruvchisi lavozimiga ko`tariladi..

Boburiylar sulolasining vakili bo`lmish Shoh Jahon 1592 yilning 5 yanvarida dunyoga keldi. Jahongir shohning uchinchi o`g`li, otasi tug`ilganda unga Xurram deb ism qo`ydi. 1627 yilda otasi Jahongir shohdan keyin 36 yoshida taxtga o`tirgandan keyin ismini Shoh Jahon deb o`zgartirdi. U juda qattiqqo`l va jur`atliligi bilan ajralib turar edi. Bir necha harbiy yurishlar natijasida sultanatining hududini bir necha barobar kattalashtirishga erishdi.

Shoh Jahon o'z davrining enjg qudratli insonlari qatoridan joy oldi. U faqatgina harbiy urushlar bilangina chegaralanib qolmadi. Shoh Jahon ko'pgina ilmlarni yaxshi egallagan, ilm-fan va me'morchilikka o'z hissasini qo'shgan, san'at namoyondalarini qo'llab-quvvatlagan, go'zallikni qadrlagan.

1613-yil 19 yoshli Arjumand bonu 21 yoshli shahzoda Xurram ya'ni Shoh Jahonga turmushga chiqadi.

Naql qilishlaricha, shahzoda Xurram Arjumand Bonuni ko'rib, unga mahliyo bo'lib qoladi.

U bu qizni shunchalik sevib qoladiki, unga uylanishga qaror qiladi. Asl millati arman bo'lган bu qiz Jahongir shohning atrofidagi vazirlardan birining qizi va rafiqasining jiyani edi, ya'ni kelib chiqishi ham oqbilaklardan edi. Shuning uchun bu juftlikning nikohiga hech kim to'sqinlik qilmadi. Aksincha, bunday ittifoq taxt vorisining pozitsiyasini mustahkamlar edi, biroq shunga qaramay, ular sevishib turmush qurdilar. Fotiha to'yi 1607 yilda Arjumand Bonu 14 yosligida bo'lib o'tgan bo'lsada, ba'zi sabablarga ko'ra nikoh to'yi 5 yilga qoldirildi va ular 1612 yilda turmush qurdilar.

Aynan to'y kuni Jahongir shoh keliniga Mumtoz Mahal, ya'ni "saroy javohiri", deb ism qo'ydi. Bu narsa qizning naqadar go'zal bo'lganligini yana bir marta isbotlaydi. Saroy shoirlari u haqda shunday der edilar: "Uning chehrasini ko'rib, oy ham uyalib qoladi. U o'z chiroyi bilan yulduzlarning shu'lasini ham so'ndirib yuboradi".

Arjumand bonu tez kunda tadbirkorligi, nozik tabiat, iffati, tengsiz husnlatofati, ayrim kelishmovchiliklarni oson hal qilishi bilan saroy a'yonlari o'rtaida katta e'tibor qozonadi. Shuning uchun ko'p o'tmay u Mumtoz mahal begin ya'ni saroyning ko'rki deya atala boshlandi.

1628 yilda Jahongir Shoh taxtga o'tirdi, Mumtoz Mahal esa Hindiston malikasi bo'ldi.

Mumtoz Mahal aqli, zukko va oqila ayol edi, shuning uchun ham u erining yaqin maslahatchisiga aylandi. U hayr-ehsonlari bilan dong taratdi, erini ham beva-bechoralarga yordam berishga chaqirdi. Mumtoz Mahal erining qalbidan chuqur joy egalladi, ular o'z muhabbatlarini she'rlar orqali izhor etar edilar. Shoh Jahon xotinini juda yaxshi ko'rар, hurmatini joyiga qo'yар, uning sharafiga katta tadbir va bayramlar uyuştirar edi. Xotining ishtirokisiz sulton hech qanday davlat yig'ilishini o'tkazmas va hech qaysi davlat xujyatiga imzo chekmas edi. Mumtoz Mahal har bir saroy kengashida qatnashar edi, uning fikri hech qachon inkor qilinmas edi. U eriga shunchalik yaqin ediki, uni harbiy yurishlarida ham birga yonida bo'lar edi.

Afsuski, Arjumand xonimning eriga nisbatan bo'lgan chuqur muhabbatni unga juda qimmatga tushdi. 1631 yilda malika homiladorligiga qaramasdan, erining harbiy safariga birga chiqdi. Uzoq yo'l mashaqqatidan uringan malikaning tug'ruq jarayoni og'ir kechdi va u farzandini dunyoga keltirib, o'zi olamdan ko'z yumdi. Mumtoz Mahal xonim bu paytda sal kam qirqqa yaqinlashib qolgan edi.

Mumtoz Mahal Shoh Jahonning uchinchi rafiqasi edi. Tabiiyki, taxt vorisining o'ziga yarasha harami bor edi, biroq u yerdagi birorta ham ayol shahzodaning ko'nglidan joy olib, Arjumandni unutishiga erisholmadi. Ularning 19 yillik turmushlari davomida Mumtoz Mahal turmush o'rtog'i Shoh Jahonga 14 nafar (8 ta o'g'il va 4 ta qiz) ato etdi.

Mumtoz Mahal beginim o'n to`rtinchi farzandini dunyoga keltirishda vafot etgan. O'limi oldidan unga atab dunyoda tengi yo'q maqbara bunyod etishni eridan iltimos qilgan, katta qizi Jahanoro beginmdan esa Shoh Jahonning holidan xabar olib, unga g'amxo'rlik qilib turishni vasiyat qilgan. Shoh Jahan Mumtoz mahal beginma atab Agrada Tojmahalni bunyod etgan.

Toj Mahal - Hindistonda qurilgan bo'lib, dunyoning eng buyuk me'moriy obidasi hisoblanadi. Butun dunyodan har yili 5 million odam ushbu arxitektura namunasini tomosha qilish uchun tashrif buyuradi. Sayyoohlarni Toj Mahalning nafaqat go'zalligi, balki u bilan bog'liq bo'lган muhabbat tarixi ham o'ziga jalg qiladi.

Xotinini jonidan ortiq yaxshi ko'rgan Shoh Jahan uning o'limidan qattiq iztirobga tushdi.

Sakkiz kecha va sakkiz kun davomida u xonasidan chiqmadi va hech narsa yeb ichmadi, hech kim bilan gaplashmadi ham. Uning alami shunchalik kuchli ediki, xatto joniga qasd qilmoqchi ham bo'ladi. Buyuk Boburiylar Saltanatida motam naq ikki yil davom etdi. Bu davr mobaynida xalq hech qanday bayramni nishonlamadi, musiqa va raqs ham taqiqlandi. Suyukli yori va xotini bo'lmish Mumtoz Mahalning o'limini o'ziga qattiq olgan Shoh Jahan xotining vasiyatini amalga oshirishni boshlab, ozgina chalg'iy boshladi. Qayta uylanishdan voz kechdi, hattoki haramidagi ayollarga ham qiziqishini yo'qotdi. Sultonning buyrug'i bilan Mumtoz Mahal xotirasiga bag'ishlab maqbara qurilishi boshlandi

Maqbaraning qurilishi uchun Agra shahri tanlandi. Sultonni Jamna daryo bo'yidagi tabiat manzarasi maftun etdi, shuning uchun u maqbara qurilishi uchun shu joyni tanladi. Suv yaqinida qurilish olib borish ishchilarga qiyinchilik tug'dirar edi, shunga qaramasdan maqbara qurilishi muvaffaqiyat olib borildi.

Maqbara qurilishi Mumtoz Mahal xonimning vafotidan yarim yil o'tgach boshlandi. U 1632 yilda boshlanib, naq 12 yil davom etdi. Tarixchilarining ta'kidlashlaricha, dunyodagi hech bir qurilma, hech bir inshoat bunday katta sarf-xarajatga tushmagan. Xotining vasiyatini bajarish uchun sulton 32 million rupiy sarf qilgan. Bugungi kunda bu bir necha milliard yevroni tashkil etadi.

Shoh Jahan quruvchilarga xom ashyo va materiallarni tejamasdan ishlatishlarini buyurdi.

Binoning ichki va tashqi bezagi uchun quyoshda toblanadigan toza marmardan foydalanilgan. Bu marmarni boshqa maqsadlarda ishlatish taqiqlandi

Toj Mahal maqbarasi 1643 yilda muvaffaqiyatli qurib bitkazildi. Uning buyukligi sulton va uning sevgilisi Mumtoz Mahal nomining abadiylashishiga sabab bo'ldi.

Shoh Jahon va uning sevgilisi Mumtoz Mahal xonimning muhabbat tarixi maqbaraga tashrif buyuruvchilarga hikoya qilib beriladi. Beqiyos maftunkorlikka ega bo'lgan ushbu maqbara hammani hayratga solishi tabiiy.

Toj Mahalning shuhrat qozonishiga sabab uning noyob chiroyga ega bo'lishini hamda maqbarani qurilishida foydalanilgan optik illyuziyalardir. Gap shundaki, majmua hududiga kirish uchun darvoza oldidagi arkadan o'tish kerak. Arkaga yaqinlashgan sari maqbara uzoqlashganday tuyuladi, tashrif buyuruvchilar arkadan o'tishlari bilanoq ko'z o'ngilarida Toj Mahal namoyon bo'ladi. Maqbaradan uzoqlashgan sari esa u yaqinlashayotgandek tasavvur hosil qiladi, shuning uchun ham bu yerga kelgan mehmonlar Toj Mahalni o'zlari bilan olib ketayotgandek holga tushadilar. Bir qarashda bu minoralar tik, ya'ni vertikal holatda qad ko'targandek tuyuladi, aslida esa ular qurilmadan ozgina qiyaroq holda qurilgan. Bu narsa Toj Mahalni zilzila vaqtida vayron bo'lishdan saqlab qoladi. Minoralar balandligi 42 metrni, maqbaraning balandligi esa 74 metrni tashkil etadi.

Toj Mahalga tashrif buyuruvchilar binoning markaziy qismidagi bosh gumbazni malikaning dafn qilingan joyi, deb hisoblaydilar. Aslida esa Mumtoz Mahalning dafn qilingan joyi maqbaraning tagidagi hududda joylashgan maxfiy marmar zalidadir. Bu narsa bejiz qilinmagan.

Maqsad – tashrif buyuruvchilar “saroy javohiri” ning tinchini buzmaslikdir.

Suyukli yoridan ayrligan Shoh Jahonning barcha narsaga qiziqishi so'ndi. Uning saltanat, hokimiyat bilan ishi bo'lmay qoldi, harbiy yurishlarda ishtirok etmay qo'ydi, davlat ishlariga ham ko'p e'tibor bermay qo'ydi. Buning natijasida saltanat o'z kuchini yo'qota boshladi, fitnalar kuchaydi, iqtisodiy krizis boshlandi, isyonlar avj ola boshladi. Taxtni Shoh Jahonning o'g'li Avrangzeb egalladi.

Shoh Jahon 1666 yilda vafot etdi. U ancha keksayib qolgan, kasalmand edi. Sultonning yana bir orzusi bor edi. U Toj Mahal ro'parasida huddi shunday shaklda faqat qora rangdag'i maqbarani barpo qilishni rejalashtirgan edi. Bu maqbara uning o'ziga atalgan bo'lishi kerak edi, biroq bu orzusini amalga oshirish unga yozilmagan edi. Otasining o'rniiga taxtga o'tirgan Avrangzeb bu loyihaning amalga oshishiga to'sqinlik qildi va yangi maqbaraning qurilish ishlarini to'xtattirdi. Shunday bo'lsada, Shoh Jahon xotinining vasiyatini amalga oshirib, Toj Mahaldeki maqbarani barpo qila olganidan xursand edi.

Bugungi kunda Toj Mahal dunyodagi eng buyuk inshootlardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Dilfuz."Shoh Jahon va Mumtoz Mahalning muhabbat tarixi va Toj mahal siri" 2019 y.
2. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.

3. Muxamedovna, G. M., Shuhratovna, T. S., & Shokir ogli, S. U. TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI.
4. Gadayeva, M. (2024). MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 652-658.
5. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
6. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszlosci*, 52, 557-562.
7. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
8. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
9. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
10. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDА TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
11. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.
12. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
13. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
14. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
15. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
16. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'Limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
17. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
18. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.

19. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
20. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
21. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
22. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
23. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The "Thoughtstorm" Method On The Theme Of The "Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
24. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
25. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
26. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
27. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
28. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
29. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
30. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
31. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
32. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.
33. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.

34. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
35. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
36. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
37. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
38. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
39. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
40. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
41. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
42. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
43. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDARICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
44. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
45. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
46. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.
47. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
48. Рахмонова, С. (2024). HARMONY OF EDUCATION AND TRAINING. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 366-375.

49. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(8), 160-172.
50. Rahmonova, S. S. Q. (2024). O 'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILGAN MA'NAVİY MADANIY ISLOHOTLAR DINAMIKASI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 95-104.
51. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>